

O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
Qarshi Davlat universiteti
Roman-german fakulteti

Karimova Shoxistaning

“5220100 - ingliz filologiyasi” ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini
olish uchun “Inglizcha yozuvni o'rgatishning nazariy asoslari”
mavzusida yozgan

Bitiruv malakaviy ishi

Karshi - 2012

INGLIZCHA YOZUVNI O'RGATISHNING NAZARIY ASOSLARI.

Mundarija

Kirish
I-bob Inglizcha yozuvni o'rgatishning nazariy asoslari
1.1 Ingliz tilida yozuv nutq faoliyatining turidir
1.2. Yozuvning psixalogik va lingvistik xususiyatlari.....
1.3. O'rta maktabda inglizcha yozuvni o'rgatish bo'yicha dastur talablari
1.4. O'rta maktabda inglizcha yozuvni o'rgatishning maqsadi va mazmuni.....
1.5. O'rta maktabda yozuvni o'rgatish. Yozuv texnikasini o'rganish.....
1.6. O'rta maktabning 5-6 sinflarida inglizcha yozishni o'rgatishning xususiyatlari va yozishni orgatish.
II-bob O'rta maktabning 5-6sinflarida inglizcha yozuvni o'rgatishni amalda qo'llash.....
5-6 sinf Fly High darsliklari bo'yicha inglizcha yozuvni o'rgatish.
Xulosa
Foydalanilgan adabiyotlar.....

Men bitiruv malakaviy ishimning kirish qismini boshlashdan oldin kelajagi buyuk Mamlakatimizda Yurtboshimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov tashabbusu va bevosita rahnamoligida xalqimizning hech kimdan kam bo'lmasdan tinch-totuv yashashi va farovonligi yo'lida amalga oshirilayotgan oqilona va odilona siyosatidan g'uru va iftixorga to'lib, Prezident ko'rsatmalaridan saboq olish niyatida u kishining keying paytlardagi ma'ruza va nutqlari bo'yicha imkon darajasida yozishni maqsadga muvofiq deb topdim.

1. Bu muqaddas vatanda azizdir inson

Ushbu risolada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 30 iyundagi „O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'n to'qqiz yilli bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tqazish to'g'risida“ gi PQ- 1358 son Qarori hamda mamlakatimizda istiqlol yillarida ijtimoiy- siyosiy, huquqiy, ma'naviy-ma'rifiy va iqtisodiy sohalarda qo'lga kiritilgan yutuqlar, ularning ko'lamini, mazmun-mohiyati, istiqboli to'g'risida fikr yuritiladi. Unda bozor iqtisodiyoti sharoitida amalga oshirilayotgan tub islohotlar, ularning pirovard natijalari inson, uning qadr – qimmatini, azizligi bilan belgilanishi va shu munosabat bilan mamlakatimizdagi tub o'zgarishlar, ularning xususiyatlariga, ayniqsa, globallashtirish jarayonlarida barkamol avlod tarbiyasi bilan bog'liq jihatlarga e'tibor qaratilgan,

Ma'lumki, har bir xalq erkin, farovon yashash huquqiga ega va buni aziz deb biladi. Jumladan, har bir inson ham bunday huquqqa ega. Zotan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson va fuqarolar huquqlari, erkinlik va birchilari kafolatlari belgilanib berilgan.

Hozirgi paytda inson huquqlari bo'yicha 400 ga yaqin xalqaro hujjat mavjud. Mamlakatimiz qonunlarini inson huquqlari sohasidagi mazkur me'yor va andozalarga muvofiqlashtirish, bu sohada milliy harakat dasturini ishlab chiqish, inson huquqlarini himoya qiladigan muassasalarning yaxlit tizimini barpo etish inson huquqlariga oid xalqaro shartnomalar va hujjatlarga qo'shilishda davom etib, ular bo'yicha majburiyatlarni bajarishning mexanizmi yaratildi.

Umuman olganda, islohotlar markazida insonning oliy qadriyat sifatida baholanishi mamlakatimiz strategik vazifalariga hamohangdir. Xususan, bu boradagi barcha o'zgarishlarni mazmun-mohiyati ham inson va uning qadr- qimmatini ko'tarish bilan bog'liq.

Vatan va inson manfaati - oliy maqsad . O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov : „Bugun biz tarixiy davrda - xalqimiz o'z oldiga ezgu va ulug' maqsadlar qo'yib, tinch osoyishta hayot kechirayotgan , avvalambor, o'z kuch va imkoniyatlariga tayanib, demokratik davlat va fuqarolik jamiyat qurish yo'lida ulkan natijalarni qo'lga kiritayotgan bir zamonda yashamoqdamiz “, - degan edi. Avvalo, tarixan qisqa bu davr , bir o'spirin yoshiga teng vaqt davomida davlatimiz uchun siyosiy sohada, davlat va jamiyat qurilish borasida har tomonlama rivojlanish va yuksalish davri bo'lganligi bugun hech kimga sir emas.

O'zbekistonning mustaqilligi ason va o'z-o'zidan qo'lga kiritilmadi, balki Yurtboshimiz rahnamoligidagi xalqimizning sobitqadam va sermashaqqat faoliyatining natijasi bo'ldi. Shu ma'noda istiqlol kimningdir in'omi emas, balki ko'plab kurashlar , muntazam hamda samarali faoliyat asosida qo'lga kiritilgan qonuniy natija , xalqimizning ulkan yutug'idir.

Bugungi kunda xalqaro hamjamiyatning e'tirofiga ko'ra, prezident Islom Karimov tomonidan asoslab berilgan jamiyat hayotini tubdan isloh qilish, jahonda moliyaviy-iqtisodiy inqiroz bo'lib turganiga qaramay, iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy hayotni erkinlashtirish, jamiyatni demokratlashtirish va bosqichma-bosqich modernizatsiyalash modeli amalda o'zini to'la oqlamoqda.

Mustaqillik – xalqimizning ulkan yutug'idir. Zero, mamlakatimizda millatlararo va dinlararo ziddiyatlarni oldini olish, ichki va tashqi buzg'unchi kuchlarni bartaraf etish bo'yicha amalga oshirilgan keskin choralar va ularning ahamiyati vaqt o'tibgina yanada qadrli bo'lmoqda.

Mustaqillik – demokratik islohotlar kafolati. Prezident Islom Karimov asoslab berganidek, mamlakatni yangilash va modernizatsiyalash tadrijiylik va izchillikka erishish kafolat bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Taraqqiyotning o'zbek modeli rivojlanish tamoyillarini to'g'ri tanlab olishda asos bo'lib xizmat qildi.

Demokratik davlat qurish tamoyillari, ya'ni iqtisodning siyosatdan ustuvorligi, davlatning bosh islohotchilik faoliyati , qonun ustuvorligiga erishish, kuchli ijtimoiy himoyani amalga oshirish, bozor iqtisodiyotiga evolyutsion yo'l bilan bosqichma - bosqich o'tish O'zbekistonning strategik rivojlanishi uchun asos bo'ldi.

Mamlakatimizda milliy davlatchilikni barpo etilishi ham puxta reja asosida bordi. 1992 yilda Asosiy qonunimiz - O'zbekiston Respublikasining ishlab chiqilishi va qabul qilinishi, davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud tarmoqlariga bo'linish prinsipining eng muhim tamotil sifatida belgilanishi – bularning barchasi davlat qurilishining yo'nalishlarini belgilab berdi.

Ijro hokimiyatining samarali tizimi va tuzilmalarini yaratish maqsadida tub ma'muriy islohotlar amalga oshirilishi bugungi kunda o'zining ijobiy natijalarini berayotgan. Viloyat, tuman va shaharlarda hokimlik institutini rivojlantirish va mustahkamlash jarayonlari bosqichma-bosqich olib borildi.

O'zbekistonda amalga oshirilgan ishlarda ayrim mamlakatlardagidek shoshma-shosharlikka yo'l qo'yilmaydi. „Demokratiya oroli“ bo'lishga da'vo ham qilinmadi, chetdan tayyor demokratiya modelini ham kiritishga yo'l qo'yilmadi.

Mamlakatimiz xalqaro hamjamiyat oldida turgan dolzarb muammolarni hal etish ishiga qo'shgan salmoqli hissasi, tashabbuslari evaziga, xalqaro tashkilotlar va tuzilmalar faoliyatidagi samarali ishtiroki orqali o'ziga obro' orttirmoqda.

O'zbekiston - yuksak ma'naviyatini qadrlaydigan yurt. Mustaqillik yillarida aholi ong va tafakkurini o'zgartirishning zarurligini hisobga olish doimo ustuvor bo'lib keldi. Yurtboshimizning: „Ong va tafakkur o'zgarmasa, hayot o'zgarmaydi“, - degan g'oyasi amalda o'z isbotini topmoqda. Yangicha hayotni eskicha ong va tafakkur, qarashlar bilan qurib bo'lmasligini anglab yetish odamlar dunyoqarashining o'zgarishiga olib keladi.

2. Prezident Islom Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining majlisidagi ma'ruzasidan

Bu yil barchamiz Ona yurtimiz, O'zbekistonimizning yangi tarixidagi eng buyuk va qutlug' sanalardan biri – Vatanimiz mustaqilligining 20 yillik shonli bayramini keng nishonlaymiz – dedi Mamlakatimiz Prezidenti. Tabiiyki, bu bizdan barcha soha va tarmoqlarda amalga oshirayotgan keng ko'lamli islohotlarimizni atroflicha tahlil etib, kelgusi rejalarimizni aniq-ravshan belgilab olishni talab etadi.

Ayni paytda biz o'z vaqtida tanlab olgan iqtisodiy taraqqiyot modelining naqadar to'g'ri ekanini va amalda o'zini to'la oqlaganini hayotning o'zi yana va yana tasdiqlab bermoqda.

Ushbu modelning tamoyillari asosida mamlakatimizni isloh etish va modernizatsiya qilish bo'yicha har tomonlama va chuqur o'ylangan tadrijiy taraqqiyot dasturini izchil amalga oshirganimiz inqirozning, jahon bozorida keskin o'zgarish va beqarorlikning iqtisodiyotimizga, moliya va bank tizimiga salbiy ta'sirini sezilarli darajada kamaytirish imkonini berdi.

Bugun dunyo iqtisodiyotidagi ahvolni tahlil qilar ekanmiz, jahon moliyaviy va iqtisodiy inqirozi hali beri nihoyasiga yetgani yo'q, deb aytishga barcha asoslarimiz bor.

Dunyodagi taraqqiy topgan 20 ta davlat ishtirokida tashkil etilgan, „Katta yigirmatalik“ deb nom olgan guruh doirasida qabul qilinayotgan barcha chora-tadbirlarga qaramasdan, jahon iqtisodiyotida barqaror o'sish sur'atlariga erishish yo'lida hozircha biron-bir siljish ko'zga tashlanayotgani yo'q.

Biz bugun 2010 yil yakunlarini baholar ekanmiz, avvalo, mamlakatimiz iqtisodiyotining yuqori barqaror o'sish sur'atlari va makroiqtisodiy mutanosibligi saqlanib qolayotganini qayd etishimiz zarur. Shuni yana bir bor eslatib o'tmoqchimanki deb, ta'kidlaydi Prezidentimiz, yurtimizda yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atlari 2008 yilda 9 foiz, 2009 yilda 8,1 foiz, 2010 yilda esa 8,5 foizni tashkil etdi. Jahon moliya institutlarining xulosasiga ko'ra, bu dunyodagi eng yuqori ko'rsatkichlardan biri ekanligi albatta barchamizga mamnuniyat bag'ishlaydi.

Keyingi o'n yilda, ya'ni 2000 yilga nisbatan taqqoslaganda, 2010 yilda mamlakatimizda yalpi ichki mahsulot qariyb 2 barobar, aholi jon boshiga hisoblaganda esa 1,7 barobar oshdi.

2010 yilda kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarni qurish, rekonstruksiya qilish va jihozlash, shuningdek, maktablarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha dasturlarni amalga oshirish yakuniga yetkazildi.

Umuman olganda, 2005-2010 yillar davomida 7800 dan ortiq umumta'lim muassasasi, qariyb 1500 ta kasb-hunar kolleji va akademik litsey barpo etildi va rekonstruksiya qilindi, Faqat 2010 yilda maktablar, kasb-hunar kollejlari va litseylarda 2300 tadan ziyod kompyuter texnikasi va multimedia uskunasi o'rnatildi.

Unib-o'sib kelayotgan yosh avlodni jismoniy jihatdan tarbiyalash va bolalar sportini rivojlantirishga qaratilgan dasturni amalga oshirish bo'yicha ishlar izchil davom ettirildi. Buning natijasida faqat 2010 yilning o'zida 72 sport inshooti, 27 ta suzish havzasi

foydalanishga topshirildi, umumiy qiymati 3 million AQSH dollariga teng bo'lgan sport inventarlari va uskunalar joylarga etkazib berildi.

O'tgan yilda farzandlarimiz ijodiy qobiliyati va ma'naviyatini yuksaltirishga qaratilgan musiqa va san'at maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha qabul qilingan dasturni amalga sohirish boshlandi. Agar 2009 yilda oltita musiqa va san'at maktabi qurilgan va rekonstruksiya qilingan bo'lsa, hisobot yilida 46 ta shunday maktab foydalanishga topshirildi. Ularning qurilishiga 51 milliard so'mdan ortiq kapital mablag' yo'naltirildi.

Birgina 2010 yilda byudjet sohasi muassasalari xodimlarining ish haqi, pensiyalar va ijtimoiy nafaqalar, stipendiyalar miqdori 32 foizga, aholining umumiy pul daromadlari esa jon boshiga 1,3 barobar oshdi.

2011 yili mamlakatimizda yalpi ichki mahsulotni o'sish sur'atlari 108,3 foiz, sanoatdagi o'sish - 109,3 foiz, qishloq xo'jaligidagi - 105,8 foiz hajmida bo'lishi ko'zda tutimoqda. Inflyatsiya darajasi 7-9 foiz atrofida bo'lishi nazarda tutilmoqda.

O'quv jarayoniga keng formatli kommunikatsiya tarmoqlari va internet texnologiyalarini joriy qilish maqsadida O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligiga Oliy va o'rta maxsus Ta'lim Vazirligi, Xalq Ta'limi Vazirligi bilan hamkorlikda „Elektron ta'lim“ milliy tarmog'ini barpo etishni nihoyasiga yetkazish hamda 2011 yilda mamlakatimizning barcha oliy o'quv yurtlarini, keyinchalik esa akademik litsey va kasb-hunar kollejlari yagona kompyuter axborot tarmog'iga ulashni ta'minlash vazifasi yuklatiladi.

Mamlakatimizda 2011- yilni „Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili“ deb e'lon qilinishi barchamizning zimmamizga qanday ulkan mas'uliyat yuklashi, bu borada tayyorlanayotgan umumdavlat Dasturini hayotga tadbqiq etish bizdan qancha kuch va mablag'larni safarbar etishni talab qilishi haqida bugun gapirub o'tirishning, o'ylaymanki, zarurati bo'lmasa kerak, deb ta'kidladi Prezident Islom Karimov.

Mamlakatimizning barcha mintaqalarida biznesni rivojlantirish uchun yanada qulay ishchan muhit yaratish, tadbirkorlik, kichik va xususiy biznesga yanada keng erkinlik berish, byurokratik to'siq va g'ovlarni bartaraf etish bo'yicha **zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim.**

3.Prezident Islom Karimov Samarqand viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyasida Samarqand zamini xususida so'z yuritganda, biz uning qadimiyligi, dunyodagi

eng ko'hna o'lkalar qatori turishi, shu bilan birga, go'zal va betakror tabiati, umumbashariy sivilizatsiya rivojiga qo'shgan beqiyos hissasi haqida, ulug' mutaffakkir zotlar, olimu fuzalolar va jasur sarkardalar haqida gapirishimiz odat tusiga kirib qolgan, dedi Yurtboshimiz. Lekin bugun Samarqand vohasining ana shunday buyuk tarixini yana bir marta e'tirof etgan holda, viloyatning yer osti va yer usti boyliklari, uning ulkan salohiyati, bunday noyob imkoniyatlarni ishga solish vs ularni el-yurtimiz manfaati yo'lida oqilona ishlatish xususida fikr yuritishimiz ayni muddao bo'ladi. Bunda, avvalambor, bu sohada qilayotgan ishlarimizga tanqidiy ko'z bilan qarash va xolisona baho berish asosiy vazifamiz bo'lishi kerak. O'z faoliyatimizga chuqur va atroflicha baho bermasdan, boy berilgan imkoniyatlarni to'g'ri tahlil qilmasdan va tegishli xulosalarni chiqarmasdan turib, hammamiz yaxshi tushunamizki, boshlagan ishlarimizni davom ettirish, eng muhimi, har qaysimiz o'z joyimizda xalqimizning bizga bildirgan ishonchini oqlashimiz qiyin bo'ladi.

Bu haqda gapirar ekanmiz, bir haqiqatni esimizdan chiqarmasligimiz lozim: Samarqand viloyati, shu yurtda yashayotgan mehnatkash xalq hech qachon oqsoqlar qatorida bo'lmagan, doimo ilg'orlar safidan munosib o'rin egallab kelgan, lo'nda qilib aytganda, hech kimdan kam bo'lmagan va kam bo'lmaydi, dedi Islom Karimov.

Dunyoga mashhur, ko'pchilik bir ko'rishni orzu qiladigan, Samarqand ahlining eng sevimli maskani bo'lmish Registon maydoni, Bibixonim, Shohi Zinda, Hazrati Xizr ziyoratgohlari oxirgi yillarda har tomonlama obod qilinib, butun jahondan keladigan mehmon va sayyohlarning havasini tortmoqda. Imom Buxoriy majmuasida amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari, bunday muqaddas qadamjolarning yanada obod bo'lib borayotgani ko'pgina musulmon mamlakatlari davlat arboblari va jamoatchiligi, minglab ziyoratchilarning yuksak e'tibori va hurmatiga sazovor bo'lmoqda.

Shu kunlarda 6 milliard 500 million so'm mablag' sarflanib, Siyob dwhqon bozorini rekonstruksiya qilish va uning hududini obodonlashtirish ishlari yakuniga yetkazilmoqda. Shular qatorida, salkam 4 milliard so'm mablag' o'zlashtirilib, Samarqand shahridagi Mirzo Ulug'bek rasadxonasi hududida yangi muzey binosi, keng maydon va so'lim xiyobon barpo etildi, buyuk bobomizning muazzam haykali o'rnatilib, bugungi kunda bu maskan Samarqand tarixining yana bir yorqin ko'zgisiga aylandi.

Bir so'z bilan aytganda, Samarqand vohasida keyingi yillarda qurilish va obodonlashtirish ishlarini amalga oshirish uchun barcha manbalar hisobidan qariyb 200 milliard so'm kapital mablag' yo'naltirildi. Bularning barchasi Samarqand shahri, viloyatdagi tuman va qishloqlarimizning yanada ko'rkam va obod bo'lishida, shu yurtda

yashayotgan insonlarning ehtiyojini ta'minlashda salmoqli qadam bo'lib, ayni vaqtda xorijiy sayyoh va mehmonlarning hayrat va havasini uyg'otmoqda.

Davlatimiz rahbari mamlakatimizda, jumladan, Samarqand viloyatida qishloqlarimizni har tomonlama taraqqiy toptirish maqsadida katta ishlar amalga oshirilayotgani, ayni paytda bu borada yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar, mavjud muammolar va ularning yechimi haqida atroflicha to'xtalib o'tdi.

Samarqand viloyatida namunaviy loyihalar bo'yicha zamonaviy uy-joylar barpo etish uchun joriy yilning o'zida 21 ta qishloq massivida qariyb 44 milliard so'mlik kapital mablag' hisobidan 650 ta uy-joy qurish va ularni shu yilning uchinchi choragida foydalanishga topshirish belgilangan edi. Lekin, afsus bilan aytish kerakki, bunday yangi, odamlarning intilishini tortayotgan, qishloqlarimizni obod qilish, qishloq hayotini shahar darajasiga ko'tarishda istiqboli katta bo'lgan muhim masalaga yetarlicha e'tibor berilmayapti. Buning natijasida ana shu uylarni qurishda sustkashlikka va ularni topshirish muddatlarini asossiz ravishda cho'zib yuborishga yo'l qo'yilmoqda.

Bugungi kunda aqlga sig'maydigan ba'zi holatlar haqida faqat afsuslanib gapirish, xususan, vodoprovod tarmoqlarining ishdan chiqishi oqibatida odamlarning quduq suvidan foydalanishga majbur bo'layotganini Bulung'ur va boshqa viloyatlarda kuzatish mumkin.

Tabiiy gaz bilan ta'minlash haqida gapirganda, bu masalada ham shu kabi noxush misollar kam emasligini aytish lozim. Jumladan, Samarqand, Urgut, Tayloq, Payariq, Kattaqo'rg'on tumanlarida bu nuqsonlar ko'zga tashlanmoqda. Ayni qish paytida bunday holat odamlarning haqli e'tirozini uyg'otmoqda.

Bu kabi kamchiliklar, ayniqsa, elektr energiyasi ta'minotidagi uzilishlar ayrim qishloq vrachlik punktlarida uchrashi hech chidab bo'lmaydigan hol deb baholash kerak.

Viloyatda zamonaviy bilim va professional malakaga, tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lgan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasini bitirgan kadrlarga ishonch bildirish, ularning yo'lini ochib berish o'rniga mas'ul lavozimlarga bugungi kun talablariga javob bermaydigan nomzodlarni tavsiya etishdek nomaqbul tajriba qo'llanib kelgan.

4. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi

Shu kunlarda barchamiz nihoyasiga yetib borayotgan 2010 yilni yakunlab, Vatanimiz mustaqilligining 20 yilligi nishonlanadigan yangi 2011 ostonasida turibmiz deb, ta'kidladi Prezidentimiz.

Ma'lumki, O'zbekiston 1991 yili o'z mustaqilligini qo'lga kiritganidan so'ng umrini o'tab bo'lgan mustabid, ma'muriy-buyruqbozlik, rejali-taqsimot tizimidan voz kechib, "o'zbek modeli" deb nom olgan o'z taraqqiyot yo'lini tanlab oldi.

Biz ishlab chiqqan va bugungi kunda hayotga tadbiiq etayotgan ushbu modelning ma'no-mazmuni - davlat qurilishi va konstitutsiyaviy tuzumni tubdan o'zgartirish va yangilash, iqtisodiyotni mafkuradan xoli etish, uning siyosatdan ustunligini ta'minlash, davlatning bosh islohotchi vazifasini bajarishi, ya'ni islohotlar tashabbuskori bo'lishi va ularni muvofiqlashtirib borishi, qonun ustuvorligini ta'minlash, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, islohotlarni bosqichma-bosqich va izchil olib borish tamoyillariga asoslanadigan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni amalga oshirishdan iboratdir.

Izchil yuqori o'sish sur'atlari, yurtimizda barpo etilgan bank-moliya tizimining barqaror va ishonchli faoliyat yuritishi, dunyo jamoatchiligi, shuningdek, Xalqaro valyuta jamg'armasi, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki singari nufuzli xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan e'tirof etilmoqda.

Haqiqatan ham, qariyb yigirma yillik mustaqil taraqqiyotimiz mobaynida O'zbekistonda yalpi ichki mahsulotning o'sishi 3,5 barobarni, aholi jon boshiga hisoblaganda esa 2,52 barobarni, aholining real daromadlari 3,8 barobarni tashkil etgani e'tiborga sazovordir. Ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar shada erishilgan marralar - aholini ijtimoiy himoya qilishi uchun yo'naltirilgan davlat harajatlarining 5 barobar ko'paygani, turmush darajasining sezilarli ravishda yaxshilangani va buning natijasida onalar o'limi 2 barobardan ko'proq, bolalar o'limi 3 barobar kamaygani, odamlarning o'rtacha umr ko'rishi 75 yoshga yetganini mamnuniyat bilan ta'kidlasak arziydi, deb o'ylayman.

Shundan kelib chiqqan holda, quyidagi yo'nalishlarni demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor vazifalari sifatida belgilash zarur, deb o'ylayman.

Davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish. Ma'lumki, o'tgan davr mobaynida mamlakatimizda davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish sohasida amalga oshirilgan islohotlar o'ta muhim bir maqsadga, ya'ni hokimiyatlar bo'linishi konstitutsiyaviy prinsipini hayotga izchil tadbiiq etish, hokimiyatlar o'rtasida o'zaro tiyib

turish va manfaatlar muvozanatining samarali tizimini shakllantirish, markazda va joylarda qonun chiqaruvchi va vakillik hokimiyatining vakolatlari hamda nazorat vazifalarining rolini kuchaytirish, sud tizimini liberallashtirish va uning mustaqilligini ta'minlash bo'yicha g'oyat dolzarb chora-tadbirlarni ko'rishga qaratilgan edi.

Boshqaruv sohasini markazlashtirishni cheklash, bu boradagi vazifalarning bir qismini respublika darajasidan viloyat, tuman va shahar miqyosiga o'tkazish, O'zbekistonda mahalliy o'z-o'zini boshqarishning noyob shakli bo'lgan mahalla tizimini shakllantirish masalalariga katta ahamiyat qaratildi.

2007 yilda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidan mamlakat Prezidenti bir vaqtning o'zida ijro etuvchi hokimiyat boshlig'i ekanini belgilaydigan normaning chiqarilishi ushbu davrdagi muhim siyosiy-huquqiy voqealardan biri bo'ldi. Bugungi kunda Konstitutsiyamizning 89-moddasida "O'zbekiston Respublikasining Prezidenti davlat boshlig'idir va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta'minlaydi" degan qoida belgilab qo'yilgan.

Shundan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 98-moddasini quyidagi tahrirda bayon etish taklif qilinadi:

"O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, uning o'rinbosarlari, vazirlar, davlat qo'mitalarining raislaridan iborat. Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumatining boshlig'I Vazirlar Mahkamasi tarkibiga o'z lavozimi bo'yicha kiradi.

Vazirlar Mahkamasi iqtisodiyatning, ijtimoiy va ma'naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Oliy Majlisning qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta'minlaydi.

Vazirlar Mahkamasi amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasining butun hududidagi barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh Vaziri Vazirlar Mahkamasi faoliyatini tashkil etadi va unga rahbarlik qiladi, uning samarali ishlashi uchun shaxsan javobgar bo'ladi, Vazirlar Mahkamasining majlislariga raislik qiladi, uning qarorlarini imzolaydi, O'zbekiston

Respublikasi Prezidentining topshirig'iga binoan xalqaro munosabatlarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi nomidan ish ko'radi, O'zbekiston Respublikasi qonunlarida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlarida nazarda tutilgan boshqa vazifalarni bajaradi.

Vazirlar Mahkamasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi oldida javobgardir.

Vazirlar Mahkamasining faoliyatini tashkil etish tartibi va vakolat doirasi qonun bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh Vaziri nomzodi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylovlarda eng ko'p deputatlik o'rnini olgan siyosiy partiya yoki teng miqdordagi deputatlik o'rinlarini qo'lga kiritgan bir necha siyosiy partiyalar tomonidan taklif etiladi.

Bosh Vazir nomzodi uning uchun tegishlicha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari umumiy sonining yarmidan ko'pi tamonidan ovoz berilgan taqdirda tasdiqlangan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining a'zolari Bosh Vazir taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.”

Shuningdek, Prezident ma'ruzasida sud-huquq tizimini isloh etish, axborot sohasini isloh qilish, axborot va so'z erkinligini ta'minlash, saylov huquqi erkinligini ta'minlash va saylov qonunchiligini rivojlantirish, fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish hamda demokratik bozor islohotlarini va iqtisodiyotni liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish masalalari to'lig'incha o'z yechimini topdi.

Kirish

Oʻrta taʼlim maktablarida inglizcha yozuvni oʻrgatishda bosh rolni oʻynaydi.

Shuning uchun yozuvni oʻrgatish oʻquv dasturlarining talablaridan biri hisoblanadi. Ingliz tilida yozuvni oʻrgatishning koʻplab foydali metodlari mavjud.

Agar oʻquvchilar yoza olishsa, ular hamma narsani xotiralarida saqlab qolishadi. Yozuv yordamida biz masofadagi axborot uzatishimiz yoki qabul qilishimiz mumkin. Yozuvning paydo boʻlishi yordamida biz koʻplab tarixiy materiallar, sheʼrlar, va novellalardan xabardor boʻlamiz.

Aks holda biz ular haqida hech qanday maʼlumotga ega boʻlolmas edik.

Yoza oladigan oʻquvchi oʻqiy oladi ham. Agar oʻquvchi oʻqiy olsa yoza oladi. Agar biror kishi baʼzi soʻzlarni, gaplarni, maʼlumotni yoza olsa, u barchasini ongida saqlab qola oladi. Shunda u bulardan soʻzlab berish jarayonida foydalana oladi.

Bu tomonda olib qaralganda yozuvni oʻrgatish va yozish juda foydali.

Yozuvning bu xususiyatlarini maktabda amaliyotni oʻtayotganimda mening diqqatimni oʻziga tortdi. Shuning uchun bu mavzu meni qiziqtirib qoʻydi.

Ayniqsa bu mavzu 5-6-sinflar doirasida, sh sinf oʻquvchilariga amaliyot oʻtaganimda meni qiziqtirdi.

Shuning uchun men oʻz malakaviy bitiruv ishimni Oʻrta taʼlim maktablarining 5-6-sinf oʻquvchilariga ingliz tilida yozishni oʻrgatish mavzusida yozishga qaror qildim.

Mening BMI

1. Kirish
2. 1-BOB Inglizcha yozuvni oʻrgatishning nazariy asoslari.
3. 2-BOB Ingliz tilida yozishni oʻrgatishning amaliy qismi.
4. Xulosa
5. Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati.

Kirish qismida men ushbu mavzuning tanlanishi va ingliz tilida yozuvni oʻrgatishning ahamiyati va muhimligini tushuntirib oʻtganman.

Nazariy qismida: Ingliz tilida yozuvni o'rgatish nazariyasi va yozuvni o'rgatish, o'quv dasturining talablaridan biri ekanligi berilgan.

Men o'rta ta'lim maktablarining 5-6-sinf o'quvchilariga ingliz tilida yozishni o'rgatishning xususiyatlari, mazmuni haqida yozganman.

Amaliy qismda 5-6-sinflarining Fly High o'quv kitobi orqali yozuvni o'rgatishning amaliyoti berilgan.

Bitiruv Malakaviy Ishimni men xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati bilan yakunlaganman.

Bitiruv Malakaviy ishning mazmuni: mening bitiruv malakaviy ishim ingliz tilida yozuvda o'rgatishning nazariy va amaliy asoslariga bag'ishlangan.

Mavzuning dolzarbligi: Bitiruv Malakaviy ishning dolzarbligi shundan iboratki, hozirgi kunda 5-6-sinflarda yozuvni o'rgatishga ko'p e'tibor qaratilmayotganligidir.

Asosiy material: nazariy ma'lumotlar va 5-6-sinf Fly High o'quv kitobidan va metodik adabiyotlarda olingan ingliz tilidagi mashqlar va misollardan iborat.

Bitiruv Malakaviy Ishimda muhokama qilinadi.

1-BOB.

INGLIZCHA YOZUVNI O'RGATISHNING NAZARIY ASOSLARI.

1.1 Ingliz tilida yozuv nutq faoliyatining turidir

Zamonaviy ingliz tilini o'rgatish metodikasida "yozma nutq", "yozuv" ushunchalari farqlanadi. Bilamizki, kommunikatsiya og'zaki va yozma nutqlardan iborat. Og'zaki nutqning komponentlari tinglab tushunish, gapirish orqali kommunikatsiya amalga oshsa, yozma nutq orqali qam kommunikatsiya amalga oshadi.

Yozma nutqning komponentiga o'qish va yozuv kiradi. Yozuv - yozma nutqning ajralmas komponentidir.

Yozma qam nutq faoliyati qisoblanadi. U orqali ma'lumot almashiladi. Ingliz tilini o'rgatishda yozuv muxim o'rin to'tadi. U orqali o'ziga axborot, ma'lumot beriladi, yozuv

orqali biz ma'lumotni ko'p vaqt qatto, asrlargacha saqlab qolamiz, kelajak avlodga etkazamiz. Yozuv bulmasa shuncha ilmiy - tarixiy boyligimiz saklanib kolinmasdi, biz ulardan bexabar qolardik. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, yozuv nutq faoliyatidir va uni o'rganishimiz kerak. U produktiv nutq faoliyati qisoblanib axborotni, ma'lumotni yozuv orqali kodlashdan iboratdir. Maktabda o'rganiladigan chet tilidagi nutq faoliyati turlari (gapirish, tinglab tushunish, o'qish) dan yozuvning farqi, uning til o'rganishda tutgan mavqei bo'lib, u o'qitish maksadi makomiga ega emas, balki talim vositasidir.

Barcha nutq faoliyati turlari va nutqiy malakalar qatorida teng qukkli bo'lgan «yozuv tushunchasi qamrovini tashkil etadigan semantik doirasini ochib beramiz. Avvalan, yozmoq (turkiycha o'zbek) dan olingan «yozuv», «yozish», «yozma» atamaları izoq talab qiladi. Ikkinchi toifada «yozma nutq», «yozma muloqot», «yozish texnikasi», «yozma mashk», «yozma ish», «yozuv ko'nikmasig`malakasi» va yunoncha («yozuv chizuv»ni ifodalaydigan, «grafika», «grafema», «kalligrafiya», «orfografiya» qamda lotincha (distare-yozish uchun aytish) «diktant», arabchadan kirgan «bayon», «insho» singari atamalar uchraydi. Uchinchi masala «harf» bilan boqliq (harfiy timsol, harf birikmasi, digraf, alfavit, alifbe kabi) atamalarni aks ettiradi.

Ma'lumki, o'zbek maktablarida chet tili o'qitish metodikasiga oid aksariyat atamalar turli sabablarga ko'ra rus tilidagi adabiy manbalardan o'zlashtirilgan. Ayni choqda ruscha ayrim atamalarning asliyatda chalkash qolda shakllanganligini bilamiz. Mas. pismo - 1) yozuv; 2) yozma nutq; 3) yozish; 4) xat, maktub. Ko'rinib turibdiki, bir atama bir necha ma'noda qo'llanadi, shunday ekan, o'zbekchaga qam bu xol noma'qul ta'sir qilgan (polisemiya tabiiy qodisa, lekin atama, odatda bir ma'noli bo'lishi shart).

Yozuvni o'rgatishga doir ro'yxatda qayd etilgan atamalarni metodika nuqtai nazaridan umumlashtirib tahlil qilamiz. Chet tilida yozuv deganda, ushbu til vositalari qo'llanib, yozma shaklda fikr bayon etish tushuniladi.

Yozma nutqda qo'llanadigan lisoniy vositalarni, birinchidan, grafemalar va yozma shakldagi leksik va grammatik birliklar tashkil etsa, ikkinchidan ularning qo'llanishi (yozilishi) yozma nutqning yozish texnikasi sanaladi. Demak, grafik vositalar va ularning texnikaviy jarayoni qaqida so'z yuritildi. Material va uni qo'llash tushunilmokda. Yozish texnikasidan foydalanib, fikrni chet tilida yozma bayon etilsa, yozma muloqot yuz beradi.

AQSH chet tillar o'qitish metodikasining atoqli namoyandalaridan harvord universiteti professori Uilga M. Rivers fikricha, savodli bo'lish - o'qish va yozuvni bilish, degan ma'noni anglatadi. O'qish va yozuv yozma nutqning ikki «pallasi»dir, birinchisida yozilgan material o'qiladi, ikkinchisida esa odatda o'qishda o'zlashtiriladigan fikr yozma izoq etiladi. Axborotni yozma bayon etish ikki yul bilan ro'yobga chikariladi: chunonchi (1) o'z fikrini

yozish va (2) aytib (o'qib) turilgan o'zga shaxs nutqini yozuvda ifodalash. har ikkala qolatda qam yozma matn yaratiladi.

«Yozuvni o'rgatish» atamasi ikki tushunchani ifodalaydi, ya'ni (1) yozish texnikasini va (2) yozma nutqni (fikrni yozma bayon etish) o'rgatish ma'nolarida kelgan. Yozish texnikasi deganda, grafika (tovush-harf munosabati va harfning ma'no bildirish vazifasi), kalligrafiya (qusnixat), orfografiya (imlo) nazarda tutiladi. Yozma nutq atamasi esa grafik tarzda ifodalangan axborot va utq muloqoti jarayoni ma'nolarini qamrab oladi. Grafika o'qish va yozish texnikasi tushunchalari bilan chambarchas boqliq. harf- tovush munosabati ko'zda tutiladi. qusnixat tushunchasi tarkibiga tovush va tovush birikmalarini yozuvda tasvirlaydigan yozuv-chizuv vositalari majmuasi (harflar, harf birikmalari, harf usti na osti belgilari) kiradi. Imlo- so'zlarni (gaplarni) yozish va ularga doir qoidalar yiqindisidir. qusnixat harf, harf birikmasi, so'z asosida, imlo esa marfema, so'z (gap) darajasida, yozma nutq esa gap, abzats va boqlanma matn materialida o'rgatiladi.

Yozma nutq boshka reproduktiv nutq faoliyati turi- gapirish zaminida, ya'ni uning lisoniy materiali va mavzulari doirasida shakllanadi. Yozma nutqtogishli xususiy malakalarga asoslanadi. Yozuv (ya'ni yozma nutq) malakalari quyidagi kunikmalardan tashkil topadi: (1) qusnixat ko'nikmasi; (2) imlo ko'nikmasi; (3) tuzish (yozma fikr bayon etish maqsadida gaplarni birlashtirish) ko'nikmasi; (4) yozuvning leksik va grammatik ko'nikmalari kabilar. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, tushunarlik yozuv nutq faoliyatining turi, u orqali ma'lumot olinadi, ma'lumot beriladi.

1.2 Yozuvning psixologik va lingvistik xususiyatlari

Psixologlarning ko'rsatishicha, har qanday tilda axborotni yozma ravishda kodlash ancha qiyin faoliyat sanaladi.

Yozma axborotni qosil qilishda yozuv mexanizmini birinchidan ovozli axborotni shakllantirishdagi elementlardan, ikkinchidan esa tovush kodini yozuv kodiga aylantirishdan iboratdir.

Bu jarayondagi birinchi element turli xil va murakkab faoliyat qisoblanadi; u yoziladigan (aytiladigan) gapning grammatik - semantik tomonlarini rejalashtirishini, gapni grammatik jihatdan reallashtirish va so'zlarni tanlashni; aytiladigan yoki yoziladigan gap komponentlarini fonetik jihatdan rejalashtirishni, tovushlarni tanlashni va gapni tayyor qosil qilib chiharishni o'z ichiga oladi. (A. A. Leontev)

Bu faoliyat yozuvda, fikrlarni bayon qilishda ovozli axborot elementlarining assotsiatsiyalanishi bilan to'ldiriladi. Agar biz matndan ko'chirish va tinglab idrok qilganimizni yozish bilan mashqul bo'lsak, unda axborotni qosil qilish emas, balki uni tinglab tushunish yoki o'qish yordamida qabul qilingan nutq maqsulini bilib olish birinchi darajali element bo'ladi.

Shunday qilib, yozuvdan muomalada foydalanishning barcha qollarida ikki bosqichni ko'rsatish mumkin: 1) kodlash yoki kodni ochish, buning natijasida tovush kodida ogoqlantirish sodir bo'ladi va 2) grafik kod yordamida kodlash.

Ogoqlantirish jarayonidagi ichki gapirish yozma axborotning murakkabligi va inson tomonidan u yoki bu tilni o'zlashtirilganligiga harab, turlicha bo'lishi mumkin.

Yozma axborotlarni shakllantirish jarayonida amalga oshiriladigan faoliyatning tahlili shuni ko'rsatadiki, yozuv qamma vaqt ikkilamchi kodlash xarakteriga ega. Bu fikr nutq faoliyatining ana shu turi bo'yicha olib borilgan ko'p tadqiqotlarda bayon qilinadi. Biroq ba'zi mualliflar grafik kod ma'lum mustaqillikka ega va uni tovush kodiga nisbatan ikkilamchi narsa sifatida tushunish mumkin emasligini ko'rsatib o'tadi. Jumladan, chet tilidagi ikki nutqda ro'y beradigan ogoqlantirish E. P. Shubinning fikricha yozuvni amalga oshirishning zarur sharti emas, balki u ona tilida vujudga kelgan odatdir xolos. Bu fikr unchalik to'qri bulmasa kerak, chunki psixologlar (M. A. Zimnyaya, A. A. Leontev va boshkalar) ning uqtirishicha, kishi qaysi tilda so'zlamasin, nutq qosil qiluvchi apparat yagonadir.

Yozuvning shakllanishini ikki bosqichi (kodlash va kodni ochish qamda yozuv belgilar yordamida kodlash), shuningdek, fikrni yozma ravishda bayon qilish og'zaki qaytarish yozuvning og'zaki nutq va o'qish bilan boqliqligini isbotlaydi va uni chet tilini o'rgatishdagi muxim vositaga aylantiradi.

Chet tili o'qitish metodikasi yozuv qaqidagi ma'lumotlarni yaqin fanlar to'plagan ilmiy yutuklardan o'rganadi va amalda ijodiy tadbiiq etadi. Tilshunoslik tilni sistema maqomida, ruqshunoslik uni faoliyat sifatida tekshiradi.

Tilshunoslik tadqiqotlariga binoan grafik tizimidagi belgilar turli informativ vazifalarni o'taydi. Bu tizimning eng kichik birligi - grafemalar va orfografik belgi (apostrof, defis (chiziqcha), harf usti va osti belgisi kabi) lardan iborat bo'lib, yozma nutqning shaqliy tarafini farqlashga xizmat qiladi. Grafik tizimning katta birligi - morfema va leksema esa nutqiy qosilaning mazmun tomonini ifodalashda ishtirok etadi. Grafema qo'l harakat mexanizmi tufayli yaratiladi va quruv kanali orqali idrok etiladi. Nutq oqimida grafema o'rniga ko'ra (bosh va kichik harflar), yonidagi harflar bilan munosabati tufayli (so'z boshi va o'rtasida kelishi), yozilish xususiyatiga harab (dastxat, bosmava mashinka yozuvi harflari) o'zining allograflari (variantlari) ga ega bo'ladilar.

Grafemalarning sifati jixatidan quyidagi toifalari mavjud: (1) segmentga oid grafema (harf, harf birikmasi), (2) morfemali grafema (o'zak, qo'shimcha, old qo'shimcha, fleksiya), (3) chegaradagi grafema (so'zning birikishi oraligida) va (4) supersegment grafema (tinish belgilari) kabilar. Yozish texnikasi nazariyada uch tarkibli bo'lgani bilan, amaliyotda ular yaxlitlik kasb

etadi. Muallim ularning har biridagi mavjud qiyinchiliklarni tilshunoslik ma'lumotlari yordamida bilib oladi. qiyinchilik tafovut qosilasidir. (Xato esa qiyinchilik okibatidir.)

Tovush - harf munosabati. Ingliz, ispan, nemis, frantsuz tillari tovush - harf boqlanishi o'quvchilar ona tilisidagidan farq qilishi qollariga duch kelamiz:

(1) tovush bilan harf miqdorining mos kelmasligi (chet tilida bir tovushga ikkita (digraf) va uch (ba'zan undan qam ko'p) harf to'qri keladi, ona tilida, «ng»dan tashkari, bu qodisa yuk);

(2) harfning turlicha o'qilishi. Chet tilidagi undosh (masalan «s») o'rniga karab, har xil tovushni ifodalaydi;

(3) harflarning bir nechasi bitta tovushni ifodalashi (masalan [k] tovush s, k, q harflari orqali belgilanishi);

(4) ba'zi harflar chet tilida o'qilmaydi (shartli «soqov» harf deyiladi). Tovush - harf munosabati yuzasidan vujudga keladigan qiyinchiliklar oldini olish uchun o'ziga qos mashqlar bajarish tavsiya etiladi husnixatni o'rganishda o'quvchilar ona tilidagi tajribalaridan samarali

foydalanishlari mumkin. O'quvchi yozish choqida to'qri o'tirishni, qo'l, barmoq va tirsak qolatini, daftarini qanday ushlash kabilarni biladi. qator harflarning yozilishi (masalan e, o, s, kabilar) o'quvchilarga qech qiyinchilik tuqdirmaydi. O'quvchilar ona tilisidagi yozish ko'nikmasi chet til o'rganishda qalakit berishi (interferentsiya) qam mumkin. Masalan bosma harf o'xshash, uning yozma shakli keskin farq qiladi yoki qisman o'xshash harflar, butunlay tafovut qiladigan harflar va x. k. z. Imloni o'rgatish uchun muallim uning tilshunoslikdagi ma'lum mezonlarini bilishi zarur.

(1) fonetik mezon: so'z yozilishi ifodalayotgan tovushga mos keladi (ing. rep; isp. dama; nem. kurz; fr. trou);

(2) morfologik mezon: fonetik xolatiga karamay so'zning ma'no ifodalovchi qismi (old qo'shimcha, o'zak, suffiks) yozilishda o'zgarishsiz koladi (masalan nem. Hand so'zida oxirgi harf [t] o'qilsa - da, yozilishi o'zgarmaydi);

(3) an'anaviy (tarixiy) mezon: fonetik va morfologik imlo qoidasiga bo'yo'nmaydi, tarixan qabul qilingan tarzda yozilaveradi (ing. door; nem. vier; fr. aube);

(4) ieroglif (ideografiya) , mezoni; aytilishda bir xil (omofon) so'zlar yozilishda o'zgacha kiyofaga ega bo'ladi (ing. here - hear ; nem. Saite - Seite; fr. Tant - tempz).

Imlo mezonlariga binoan yozish texnikasi qiyinchiliklari me'yori aniqlanadi. Fonetik imlo oson qisoblanadi (ko'prok ispan tilida), qiyinroqi an'anaviy imloda yozish (ingliz va frantsuz tillarida). Morfema qismlariga e'tibor beriladigan morfologik mezonga nemis tili to'qri keladi. Yozuv jarayonining ruqshunoslikda tahlil etiladigan xususiyatlaridan muallim xabardor

bo'lishi kerak. Ta'limiy ruqshunoslik fanida ma'lumki, yozuv mexanizmi harflardan so'z qosil qilish va ulardan gap tuzish demakdir (N. I. Jinning ilmiy xulosasi).

Ruqshunoslikdagi faoliyat nazariyasi bo'yicha (gapirishga o'xshab) fikrni shakllantirish va ifodalash usulidir. Bunda til belgilari qo'llanadi. Ular bosh miya qobiqida yuz beradigan nerv boqlanishlarida tamqalangan timsollar tarzida «saqlanadi». Mazkur nutq faoliyati turida ko'ruv va qo'l harakat timsollari eshitish va nutq harakatga oidlari bilan birgalikda amal qiladi. Ko'ruv - grafik va qo'l harakat timsollari muvriy tarzda yozish bilan mashqul qo'lining harakat mexanizmi tomonidan boshhariladi. So'zning imloviy timsoli esa yozayotgan qo'ning harakat mexanizmidan emas, balki nutqiy mexanizmda tamqalanadi.

Yozuv ruhshunoslar ta'biricha, alfavitdagi harflarning grafik jihatdan to'qri tasvirini (harfiy timsolini) tushirish, ya'ni ma'nosini uning tovush, grafik (harfiy) va harakat timsollari bilan fikran boqliq, tovush va tovush birikmalarini harf va harf birikmalariga «o'tkazish» demakdir. Ikkinchidan, so'z, so'z birikmasi va tinish belgilarni imlo jihatdan to'qri yozish lozim, Uchinchidan, yozma shaklda fikr izxor kila olish kerak. Demak, yozuvni o'rgatishda tovush, harf, bo'qin, so'z, so'z birikmasi, gap, abzats va yozma axborot ustida ish oli6 boriladi.

Ishtirok etadigan aqliy operatsiyalar miqdori jihatidan yozuv gapirishga nisbatan murakkab nutq faoliyati turidir. Yozayotgan shaxs o'zining va boshqalarning fikrini yozma bayon etadi.

Psixolingvistika ma'lumotlarida «kod» atamasi har qadamda uchraydi (bu qaqda «O'qishni o'rgatish» bobida qam so'z yuritilgan). Grafik kodni ishga tushirishda quyidagi operatsiyalar amal qiladi: (1) tovushni tasavvur etish (o'quvchi yodlagan materialni yozish choqida), yoki tovushni idrok etish (aytib turib yozdirish paytida), yoki tovush tasavvuriga boqliq tovush idroki (kitobdan tekstni ko'chirishda); (2) ushbu tasavvur va idrok bilan muayyan grafemalar boqlanishini o'rgatish; (3) yozishda amaldagi ichki nutq bilan boqlangan harakatni bajarish. Operatsiyalarda ishtirok qiladigan ko'ruv va harakat analizatorlari ko'zga tashlanib tursa, tovush va eshitish analizatorlari pinqoniy va kuchsiz ravishda amal qiladi.

Yozuv murakkab psixofiziologik faoliyat bo'lib, unda nutq analizatorlarining qammasi ishtirok etadi.

Gapirish mexanizmlari yozuvda qam amal qiladi. Yozuvda ma'no, tovush timsoli va harfiy timsol o'zaro boqlanadi. Ma'lum, ma'no va tovush timsoli gapirishda amal qiladi, yozuvda ularga harfiy timsol qo'shiladi. Grafik timsol o'zlashtirila borib, nutq, (ya'ni yozuv) ko'ruv analizatori nazoratiga o'tadi (gapirish esa eshitish analizatoriga tobe bo'ladi). Ichki nutq tezligidan yozuv sur'ati sekinrok kechadi (gapirishda esa ayni choqda ichki nutq amal qiladi). Keltirilgan ilmiy muloxazalarga asoslanib, avval og'zaki, keyin yozma nutq o'rgatiladi. Gapirishda audiotekst, yozuvda grafik tekst yaratiladi.

Inglizcha yozuvni o'rgatishda uning psixologik va lingvistik xususiyatlarini, qiyinchiliklarini xisobga olishimiz zarur. Biz o'qituvchilar albatta e'tibor berishimiz kerak.

1.3. O'rta maktabda inglizcha yozuvni o'rgatish bo'yicha dastur talablari

O'rta maktabda inglizcha yozuvni o'rgatishga oldin chuqur aqamiyat berilmas edi. Yozuvdan oldingi dasturlarda vosita sifatida foydalanish talabi qo'yilgandi. Inglizcha yozuvni o'rgatish maksad emas edi. Yangi dasturda yozuvni o'rgatish maqsad qilib qo'yilgan. Uning zaruriyati tushunib etildi. Oldingi dastur bo'yicha 10- sinfni bitirayotgan o'quvchi 5 - 6 - 7 - 8- sinflarda og'zaki o'rgangan, o'kigan materiallarini yoza olish talabi quyilmagan edi.

O'rta maktabda inglizcha yozuvni o'rgatish bo'yicha dastur talablari belgilangan. Dastur talablarida:

- a) yozuv texnikasini o'rgatish
- b) fikrni yozma bayon qilish
- s) o'zgaralar fikrini tinglab yozish mazmuni talab qilib qo'yilgan.

Yangi dastur talablari umumiy O'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'kuv dasturida tupik bayon qilingan. Bu davlat ta'lim standarti va o'kuv dasturi tupik «Sharq» nashriyotining 1999 yili maxsus sonida bayon qilingan. Bu dastur bo'yicha o'quvchilarga:

- a) inglizcha harf va harf birikmalarini yozish va o'qish
- b) so'zlarni yozish va o'qish
- s) gaplarni to'qri yozish va oxangda o'qish talablari qo'yilgan.

Bular o'qish texnikasiga yoki grafika, orfografiya, kolligrafiyaga kiradi. Yana o'z fikrini inglizcha bayon qilish yoki o'zgaralar nutqini tinglab yozish talabi qam quyilgan.

Darslik mualliflari, o'qituvchilar bu dastur talablariga buysinishlari kerak. Darslik yozuv bo'yicha dastur talablarini amalga oshiradigan qilinib to'zilgan bo'lishi kerak. O'qituvchilar dastur talablarini doim yodda tutib ularni amalga oshirishlari lozim.

1. 4.O'rta maktabda inglizcha yozuvni o'rgatishning maqsadi va mazmuni

Turli tipdagi o'kuv yurtlari uchun chet tillari bo'yicha nashr qilingan deyarli barcha dasturlarda yozuv maksad emas, ta'lim vositasi sifatida belgilangandi. Fakat 60-yillarda chiharilgan dasturlardagina ta'lim maksadi sifatida ancha kamtarona talab - o'quvchi, talabalarda

chet ellik do'stlariga xat yoza olish ko'nikmasini shakllantirish vazifasi qo'yilgan edi. Yangi dasturda esa yozuv qam o'qitish maksadi, qam vositasi qilib olingan.

Yozuv ta'limning qamma bosqichlarida yordamchi aqamiyatga ega bo'lib, u gapirish, tinglab tushunish va o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish va takomillashtirish

vazifasini bajargan. 5-9 sinflarda yozuv ta'limning maqsadi qisoblanadi.

Yozuv o'qish vositasi sifatida qo'llanib, o'rta maktabda ta'limning turli bosqichlarida xar qil rol o'ynaydi. Masalan, ta'limning birinchi bosqichidagi asosiy vazifa yozuvni o'rgatishdan iborat; chunki bu davrda qusnixat ko'nikmalari qamda tovush - harf muvofiqligi bilan boqliq bo'lgan ko'nikmalar tarkib topadi. Bu ko'nikmalar o'qish va yozuvning shakllanishi uchun zarur shart - sharoitdir.

O'qitishning ikkinchi bosqichida yozuv ustida olib boriladigan ish yangi til materialining tuplanishi bilan boqliq bo'lgan imlo ustida ish kuchiriladi. Shu bilan birga yozma nutq og'zaki nutq ko'nikmalarini shakllanishiga imkon beruvchi vosita sifatida rivojlantiriladi.

Ta'limning bu bosqichida ilgari egallangan yozuv ko'nikmalari og'zaki nutqning qam rivojlanishi bilan takomillashib boradi. Yangi til materiali bilan boqliq qolda imlo ustida ishlash qam davom ettiriladi va fikrni yozma bayon qilish o'rgatilib, rivojlantiriladi. Bundan tashkari yozuv yana bir muxim rolni o'ynaydi - u o'quvchilarning til ustida mustaqil ish olib borishda, xususan o'qilgan matnlar yuzasidan annotatsiyalar yozish va rejalar to'zish yordamchi vositaga aylanadi.

Yozuv boshqa nutq faoliyatlarini shakllantirishda, rivojlantirishda vositachilik qiladi. Yozuv orqali o'zganing fikrini yozib olamiz, o'qiganimizni yozsak, xotiramizda yaxshi saqlanadi, gapirish uchun malumot tuplaymiz, gapirishimiz oson bo'ladi. Yozuvni o'rganish orqali o'qishni qam o'rganamiz.

Yozuvni o'rgatishni mazmuni bor. Yozuvni o'rgatishning mazmuni deganda yozuv bo'yicha nimalarni o'rgatish va ular bilan nima qilish tushuniladi. Yozuvni o'rgatganda harf, harf birikmalari orqali so'zlar, gaplar to'zish, fikrni yozma bayon qilish o'rgatiladi.

Tilshunoslik harf, harf birikmalarini yozishni grafika deb, so'zlarni xatosiz, imlosini to'qri yozishni - orfografiya, tinish - belgilarni to'qri qo'yishni - punktuatsiya, qusnixatni - kalligrafiya deb ataydilar.

Shu nuqtai nazardan, yozuv mazmuniga grafika, orfografiya, punktuatsiya va ular orqali fikrni yozma bayon qilish kiradi. Bularni soddalashtirib, ikkiga ajratishimiz mumkin.

Grafika, orfografiya, punktuatsiya o'rgatishni yozuv texnikasiga kiritishimiz mumkin, ikkinchisiga fikrni yozma bayon qilish kiradi. Demak, yozuvni o'rgatish mazmuni yozuv texnikasidan va fikrni yozma bayon qilishdan iborat. Uni jadvalda quyidagicha yakkol ko'rish mumkin:



Yozuv mexanizmlari bor. Mexanizmlar deganda yozuv nimalar orqali amalga oshishi tushuniladi. Mashhur psixolog N. I. Jinning guvohlik berishicha, yozuv mexanizmi ikki bosqichdan: 1) harflardan soʻz yasash va 2) soʻz va soʻz birikmalaridan yozma axborotlar toʻzishdan tashkil topadi.

Ma'lumki, yozuv mexanizmi birinchi bosqichning asosida malaka darajasiga etkazilishi kerak boʻlgan yozuv va imloni egallash, ikkinchi bosqich zaminida esa fikrlarni ma'lum yozuv kodi yordamida ifodalash, ya'ni nutq koʻnikmasini egallash yotadi.

Oʻqituvchi mana shu mexanizmlarni yozuv mazmunini oʻrtaga olsa oʻquvchilar, talabalar yozuvni amalda qoʻllay oladilar.

Darslik muallifi, oʻqituvchi oʻrta maktabda yozuvni oʻrgatish maksadini xisobga olib darslik toʻzishi, oʻqituvchi esa darslikdan foydalanib, albatta yozuv boʻyicha maqsadini amalga oshirishi kerak. Oʻrta maktabda yozuvni oʻrgatish boʻyicha maksadi, yozishni oʻrgatish mazmuni boʻyicha amalga oshadi. Mazmun boʻlmasa, maqsadni amalga oshirib boʻlmaydi.

1.5Oʻrta maktabda yozuvni oʻrgatish.Yozuv texnikasini oʻrgatish

Ma'lumki, yozuv texnikasini oʻrgatish grafika, orfografiya, punktuatsiya, kalligrafiyani oʻrgatishdan iborat. Xozir ularni yozishni oʻrgatishda bosmacha harf, harf birikmalarini, soʻzlarni, gaplarni yozish oʻrgatiladi. Uning sababi shuki, oʻquvchi yozmacha harfda yozib, bosmacha harfdagi soʻz, gaplarni oʻqishda qiynalyapti, chunki ba'zi harflar yozmacha bir koʻrinishda, bosmachada ikkinchi koʻrinishda boʻladi.

Grafika, kalligrafiyani oʻrgatish ta'limning birinchi va ikkinchi bosqichlarida, orfografiyani oʻrgatish esa aktiv leksika boyligini tuplash davomida olib boriladi.

Harf va harf birikmalarini yozishni oʻrgatish oʻz navbatida ikkiga: harf muvofiqligini va har bir harfning turli vazifalari oʻrtasidagi turli boqlanishlarni oʻrgatishga boʻlinadi, koʻrsatib

o'tilgan vazifalarning birinchisi o'qish texnikasini o'rgatish bilan o'zviy boqliqdir, chunki o'qish texnikasi qam, yozuv texnikasi qam aniq boqlanishga asoslanadi. Ular o'rtasida tafovut fakat harakatlarning yo'nalishida o'z ifodasini topadi. Masalan: o'qish texnikasini o'rgatishda kodlarni ochish harakatlari yozuv belgilarining muayyan tovushlar bilan mos kelishiga boqliqdir. Yozuv texnikasini o'rgatish esa anashu boqlanish teskari yunalishda namoyon bo'ladi. Shuning uchun metodikada o'qish va yozuv texnikalarini o'zaro boqliq qolda o'rgatish zarur degan xulosaga kslingan. Yozuv texnikasini o'rgatishda o'qituvchi harf va harf birikmalarning yozilish qoidalarini tushuntiradi, doskaga yozib ko'rsatadi, yozdiradi va o'qib beradi. So'ng o'quvchilar shu harflar ishtirokida so'zlarni o'zlari mustaqil uqiydilar.

Tovush - harf munosabatini o'rgatishda tovushni idrok etish - ko'rish tasavvuri va undan so'ng yozuv harakati sodir bo'ladi. Bunga o'rgatishda oddiy va kam sonli mashqlarning o'zi etarlidir. Mashqlar o'quvchi, talabalarda mustaqillikni oshirishga asoslanadi. harflarning polisemiyasi va omonimikasini o'rgatishda qo'shimcha mashqlar o'tkazish va ularning umumiy miqdorini ko'paytirish zarur.

Yozuv texnikasini o'rgatishda eng murakkab narsa imloni, orfografiyani o'zlashtirishdir. Bunga sabab ingliz tilida imloning tarixiy tamoyilga asoslanganidir. Imloni ongli o'rgatishda, albatta, qoidalardan foydalaniladi. Imloni o'rganishda foydalaniladigan qoidalarni ikki guruxga bo'lish mumkin. qoidalarning birinchi guruxi o'quvchilarga qoidaga mos keladigan so'zlarni topishni o'rgatadigan mashqlarni o'z ichiga oladi. Ikkinchi gurux so'zlarni qo'llash bo'yicha mustaqil ishlashga mo'ljallangan mashqlardan tashkil topadi.

Murakkab yozilishga ega bo'lgan so'zlarning imlosini o'rganish ancha qiyin masala sanaladi. Bunday so'zlarning yozilishini esda saqlab qolish uchun tayanchlarga suyanish kerak, imloni tushuntirishda va mashqlarni bajarishda ana shu tayanchlardan foydalanishimiz mumkin.

Shu narsani aloxida takidlab o'tishimiz lozimki, imlo ustida ishlash ta'limning boshlanqich bosqichida yakunlanmaydi. Ta'limning ikkinchi bosqichida imlo (orfografiya) ustida ishlash davom ettiriladi. Buning uchun vositalardan biri - biri matnni ko'chirib yozish, yozma mashqlarni ko'plab bajartirish, yozma ishlarni yozdirishdan keng foydalaniladi.

Orfografiya (imlo)ni o'rgatishda uning 6 tamoyilini xisobga olish zarur.

1. Fonetik tamoyil - so'zni yozilishi talaffo'ziga to'qri keladi (a rep).
2. Morfologik tamoyil - morfema qaerda bo'lishiga haramay bir xil yozilishi (listen - so'zida «t» o'kilmasa qam yoziladi).
3. Traditsion tamoyil - so'zning yozilishi tarixi bilan boqliq. So'zning talaffo'ziga yozilishi umuman to'qri kelmaydi. One [wG`g`n] - one

4. Teorografiya taomyili - tovush omonimlarini yozuvda ifodalashda belgilar qo'llaniladi (books - kitoblar).

5. Tamoyil - so'zlarni talaffo'zi bir xil, yozilishi turlicha (bear- bare, flower flour, sea - see).

6. Tamoyil - harflar talaffo'z qilinmaydi, lekin yoziladi (plate).

O'qituvchi orfografiyani o'rgatishda bu tamoyillarni qisobga olishi kerak. qusnixatni o'rgatishda, uni yaxshi yulga qo'yishda ona tilida o'zlashtirilgan ko'nikmalarga suyaniladi. Uni o'rgatishda, ona tilida shakllangan ko'nikmalarni ko'chirish ijobiy bo'lishi zarur.

O'rta maktabda yozuvni o'rgatishning qiyinchiliklari

Yozuv qiyinchiliklari yozuv texnikasi, fikrni yozma bayon qilish bo'yicha bo'lishi mumkin. Ikkalasida qam ekstralingvistik va lingvistik qiyinchiliklar bo'ladi. Ekstralingvistik qiyinchiliklar quyidagilar:

1. O'quvchi, talabalarni yozishga tayyorgarligi.
2. Yozuv o'tkazilayotgan vaziyatni tayyorligi.
3. Yozish uchun vositalarning mavjudligi (daftar, ruchka, kitob).
4. O'qituvchining tayyorligi.
5. O'qituvchining yozishni, ayniksa, yozma ishlarni o'tkazish metodikasi.
6. Mashk, yozma ishlarni o'quvchi, talabaning bilimiga mos qolda to'zilganligi.

Lingvistik qiyinchiliklar.

1. Harflarni bosma a yozmachasini to'qri yozabilishlik.
2. Harf birikmalarini to'qri yozabilishlik.
3. So'zlarni xatosiz yozish, ularni ma'nosini bilish

So'zlar orqali grammatika nuqtai nazaridan gaplar to'za bilishlik.

Ingliz tilida fikrni yozma ifoda qilishni o'rgatish

O'quvchi, talabalarning fikrlarini o'z so'zlari bilan inglizcha ifodalashga o'rgatish yozuvni o'rgatishning asosiy maksadidir. Uni o'rgatish 4 ta bosqichlar orqali amalga oshiriladi:

1 - bosqich: Tanlangan mavzu uchun so'zlarni, modellarni sinfda og'zaki ishlab chikish;

2- bosqich: Og'zaki o'rganilgan so'zlarni, modellarni yozilishini o'rgatish, o'zlashtirish uchun uyga yozma vazifa berish;

3- bosqich: Tanlangan mavzu bo'yicha sinfda og'zaki nutq mashqlari bajarish;

4- bosqich. Yuqoridagi 3 ta bosqichdan foydalanib tanlangan mavzuda fikrni yozma bayon qilish.

Keyinchalik o'quvchilar, talabalar o'zlari mustakil fikrlarini shunday yozma bayon qilishga tayyorlanib yozma ifodalaydilar.

O'quvchi, talabalar fikrlarini o'z so'zlari bilan yozma bayon qilish ko'nikmasini egallab olishlarida yozma shakldagi faoliyatining bayon, tasvirlash, qikoya qilish, insho, referat, annotatsiya to'zish kabi turlaridan foydalaniladi, ayniksa, turlicha xatlar yozdirish ma'qo'lrokdir.

Yozuv bo'yicha yozma ishlar va ularni o'tkazish turlari

Yozma ishlar yozuvni o'rgatishda muqim o'rin to'tadi. O'quvchi, talabalar yozma ishlar orqali yozuv texnikasini amalda qo'llaydilar, o'qituvchilar esa yozuv ko'nikmalarini tekshiradilar, nazorat qiladilar.

Yozma ishlarning turlari bor. O'qituvchi yozma ishlarni o'quvchi, talabaning yozishiga, sinfiga, bilimiga va vaziyatga harab tanlaydi, to'zadi. Turlarga bo'lsak bo'ladi:

1. Yozuv texnikasi bo'yicha yozma ishlar turlari:

a) harf, harf birikmalarini yozdirish;

b) so'zlarni yozdirish;

s) spelling yozdirish;

d) mashkni matnni ko'chirish yozish kabilar;

e) diktantlar yozdirish.

2. Fikrni ezma bayon qilish bo'yicha yozma ishlar turlari

a) bayon yozdirish;

- b) insho yozdirish;
 - s) rasmni tasvirlab yozish;
 - d) mavzuni qikoya tarzida yozish;
 - e) xat yozish;
- referat yozish;
- annotatsiya yozish kabilar.

Diktantlarni birnecha xillari bor:

1. Eshitib - tinglab yoziladigan diktant.
2. Kurish diktanti.
3. O'z - o'zidan diktant yozish.
4. Bayonni ba'zilar ijodiy diktant deb qam tushunadilar.

Diktantning asosiy vazifasi o'quvchi, talabalar ongida tovush - harf muvofiqligini mustaxkamlash, so'z va so'z birikmalarining kurish va tovush obrazlari o'rtasida mustaxkam aloqa o'rnatishdir. Eshituv diktanti tovush - harf muvofiqligi va imloni puxta o'zlashtirilayotganini tekshirishning eng ishonchli vositasidir. Shuning uchun bunday diktantlarni to'zishda ilgari o'rgatilgan so'zlarni olish zarurligini esdan chiharmasligimiz lozim.

Diktant matnining mazmuni o'quvchi, talabalar uchun qiyin bulmasligi kerak.

Diktantni o'tkazishda avval matnni butun qolda o'qib beriladi, keyin gapma - gap o'qiladi, gaplar bir martadan qaytariladi, oxirida tekshirish uchun butun matnni yana o'qib beriladi.

Ishni bunday tashkil qilish o'quvchi, talabalarning diqqatini bir joyga to'plashni ta'minlaydi va qayta kodlashni, ya'ni tovush kodini yozuv kodiga aylantirishni mashq qilish imkonini beradi.

Bayon yozish uchun sinfda o'qituvchi raxbarligida malum tayyorgarlik ishlarini olib borish zarur. O'quvchi talabalar bilan birgalikda eshitilgan yoki o'qib chiqilgan matnlarda modellar tanlab olish, matnni ma'nolar qismlarga bo'lib chiqish va uning asosiy mazmunini aniqlashi lozim. Sinfda mana shunday tayyorgarlik ishlari olib borilgach, bayon yozib kelishni uyga vazifa qilib berish mumkin.

O'quvchi, talabalarga fikrni yozma ravishda bayon qilishni o'rgatishda insho muqim aqamiyat kasb qiladi. Insho tula ma'noda, biror mavzuning matnini muxokama qilishdan iborat. Lekin bunday ishni amalga oshirish har bir o'quvchi, talabaning qo'lidan kelavermaydi. Shu sababli respublikamiz umumta'lim maktablarida ingliz tilida rosmna insho yozish ancha qiyin

ish qisoblanadi. Balki fikrni yozma ifodalash bilan boqliq bo'lgan xikoya yoki tasvirlashni shartli ravishda insho deb atash to'g'ridir.

Yozma ishlarni o'quvchilar, talabalar xatosiz yozishlari faqatgina o'quvchi, talabalarga boqliq bo'lmay, o'qituvchining yozma ishlarni yozdirishni to'g'ri tashkil qilishga, o'tkazishiga qam boqliqdir.

Bunga o'quvchi, talabalarni oldindan tayyorlash, yozma ish materialiga o'quvchi, talabalarining bilimi etarli bo'lishi, ularni to'g'ri metodik ketma - ketlikda tashkil qilish, o'tkazish kabilar kiradi.

Yozuvni urgatishda qo'llaniladigan mashqlar

Yozma mashqlar tushunchasi doirasiga o'quvchilar sinfda va uyda bajaradigan barcha yozma ishlar kiradi. Yozma mashq deganda, yozuv (yozma ishda fikr bayon etish) va yozish (tovush kodini grafik belgiga o'tkazish) amallari anglaniladi. Birinchisida ezma nutq muloqoti yani o'zining va o'zga shaxsning fikrini yozma shaklda kimgadir etkazish, ikkinchisida esa yozish texnikasi (tovush - harf, qusnixat, imlo) mashqlari nazarda tutiladi.

Metodik adabiyot saxifalarida yozma mashqlar kator mezonlarga ko'ra tasniflanadi: (1) vazifaga ko'ra - tayyorlov va asosiy (nutqiy) ma'nosida J. J); (2) nutq faoliyatining xususiyatiga harab - retseptiv va reproduktiv;

(3) o'quv amallari jixatidan - til strukturalarini nutqda taklidan qo'llash, o'zgartirish, biriktirish; (4) til materialiga munosabat yuzasidan - nutqda aniq bir maqsadda va turli maqsadlarda qo'llash. Ushbu yozma mashqlar yana kichik turlarga ajratilishi mumkin.

Yozuvni o'qitishga baqishlangan metodik manbalarda mashqlarning umumiy tasnifi (E.I. Passov) xam keltiriladi. (1) ko'chirish (2) eshitib yozish (imlo diktanti); (3) erkin va ijodiy diktant (fikr bayon etish); (4) chinakkam yozuv mashqi (xat, devoriy matbuotga maqola yozish, biror qodisani tasvirlash); (5) o'yin mashq (krossvord, chaynvord, topishmok); (6) xikoya (matn)ning rejasini to'zish; (7) o'qigan matnning muxtasar bayoni (annotatsiya)ni tayyorlash .

Yozma mashqlarning mavjud tasniflarini umumlashtirib, amaliy qo'llaylik nuqtai nazaridan yozish va yozma nutq mashqlari sifatida tavsiya etiladi va ularga namunalar keltiriladi.

Yozma mashqlari: falon tovushni ifodalovchi harflarni yozish; matndan falon tovush - harf munosabatini namoyish qiluvchn so'zlarni ko'chirish; matnni ko'chirib, undagi tovush va harf mikdori mos kelmaydigan so'zlarning tagiga chizish; matndagi so'zlar tarkibida uchraydigan o'qilish koidalarini guruxlash (mas. o'qilmaydigan harfli so'zlar, harf birikmali so'zlar, tovush - harf mikdori to'g'ri keladigan so'zlar va x. k. z.); bir tovush bir necha harf va harf birikmalari orqali berilishiga matndan misollar topish; o'xshash marfemali so'zlarni

matndan ko'chirish; falon tovushni o'z ichiga oladigan so'zlarni (qirkma alfavitdan foydalanib) to'zish.

Diktant yozish: maktab sharoitida quyidagi diktant turlari utkaziladi: eshituv. ko'ruv, ko'ruv - eshituv, ogoxlaitiruvchi diktantlar. Eshituv diktantida oldin o'rganilgan material aytib turib yozdiriladi. Unda tovush - harf munosabati mustaxkamlanadi.

Qo'ruv diktantida sinf doskasiga yozilgan gaplar o'qiladi, ular o'chiriladi. So'ngra muallim aytib turadi. Yoddan yozishadi.

Har ikkala diktant xususiyatini o'zida mujassamlashtirgan qo'ruv - eshituv diktanti choqida bir yula sinf doskasi va daftarlarga yozib boriladi.

O'quvchilar daftarlardagi yozuvlarini solishtirishadi va xatolarni tuqirlab, tahlil qilishadi.

Ogoxlantiruvchi diktant o'tkazishda muallim avvalo qiyin orfogrammalarni sinf doskasiga yozib tushuntiradi, o'chiradi, so'ngra, ularni aytib turib yozdiradi.

Bu lardan tashkari yana yod olingan material (parcha, she'r)ni mustaqil yozish diktanti amalda qo'llanadi.

Imlosi qiyin so'zlarni o'quvchilar, odatda, o'zlariga «qo'lay qoidalar» yordamida o'qib yozadilar. Metodistlar eksperimentlari ushbu o'qish - yozishni tartibga solib, amalda istifoda qilishni tavsiya etishgan. Qiyin imloli so'zlarni orfografik aytishG'o'qish orqali o'rganiladi.

Texnikaviy mashqlar orasida qusnixatni o'rgatishga doirlari qam bajariladi: qo'l harakatini o'rganish; namunaga binoan harf qismlarini yozish; harfni bir necha qatorda yozish; matnni (parchani) chiroyli qilib ko'chirish; aralash berilgan harflarni juftlari bilan yozish; bosma harfning yozma shaklini yozish; bosma matnni harflar bilan ko'chirish va x.k.z.

Yozish texnikasi mashqlarini bajarishda ko'chirish, tagiga chizish, tuldirish, tasniflash (guruxlarga ajratish), tahlil, xatolarni to'zatish kabi ish turlari o'rni bilan keng qo'llaniladi.

Imlo mashqlarini keragida sodda qoidalar ko'magida o'tkazish qam yaxshi samara beradi. Imlo ko'nikmasining shakllanishi yozma nutq muvaffakiyati garovidir.

O'quvchilar ma'lum darajada texnikaviy ko'nikmani va til materialini (lisoniy ko'nikmalarni) egallagandan so'ng yozma nutq mashqlarini bajara boshlashadi.

Yozma nutq mashqlari: nutq mashqlariga quyidagilar kiradi: bayon, xikoya, tasvir, insho, xat (maktub) yozish. Avval tinglangan va o'qilgan mazmunan boqlanma jumlar guruxini yoddan yozish yozma nutq mashqlarini bajarishda dastlabki kadam qisoblanadi.

O'qilgan matnni qishartirish, ya'ni asosiy mazmunni ifodalovchi tayanch jumlarini ajratish va shu jumlarini ichki qiskartirish navbatga bajariladigan yozma nutq mashqlaridandir.

Endi o'quvchilarga qisqartirish bilan birga matnning shaklini o'zgartirish tavsiya qilinadi. Matn mazmunini saqlagan qolda o'zgacha jumlar bilan yozma bayon etishga o'rgana boshlashadi.

O'zgartirish mexanizmini egallash va matn mazmunini «o'z so'zlari bilan» yozish orqali bayon mashqini bajarishga o'tiladi. Bayon yozish tegishli tayyorgarlik ishlarini talab etadi: zarur nutq namunalari tanlash, matn qismlarga ajratish va ularning mazmunini tahlil etish va ketma - ketligini aniqlash kabi mashqlar bajariladi.

Nixoyat, o'qilgan yoki tinglangan matn mazmuniga suyanib, xat (maktub), devoriy matbuotga maqola kabilarni yozma tayyorlash mashq qilinadi.

Ushbu tadbirlar oqibatida eng murakkab ish turlaridan inshoni mashq qilishga o'tiladi. Chet tillari bo'yicha «insho» shartli tushunilmoqi kerak. Tom ma'nosi bilan insho fakat ona tilida mashq qilinadi. Yukori sinflarda muayyan mavzu yuzasidan o'z fikrini (munosabatini) yozma bildirish mashqi sifatida insho og'zaki o'rganilgan nutq mavzusi va til materialini asosida yoziladi.

Yozma nutq mashqlarini bajarishning yuksak darajasida xat (maktub) yoziladi. O'quvchilar turmushi bilan boqliq mazmunda xat yozish qaqida gap boradi. o'quvchilar xat yozishlari uchun ularga muallimlar quyidagilarni o'rgatadilar: xatning mazmunini aniqlash; muayyan nutq namunalari va leksik birliklarni tanlash; xatni to'qri rasmiylashtirish.

Xatning mazmuni deganda, o'quvchilar og'zaki nutq yuritadigan mavzular doirasida yozma fikr bildirish tushuniladi. O'quvchi o'zi qaqida, maktabi, oilasi, shaqriG'qishloqi, jumxuriyati (vatani) to'qrisida yozadi.

Nutq namunalari va leksikani tanlashda epistolyar (maktubiy) shakldagi, yozuvga qos nutqiy muomala ifodasi, tabrik, minnatdorchilik bildirish, xatni yakunlash kabilarga doir jumla va so'zlarni daftarga yozib borish zarur.

Xatni rasmiylashtirish bobida uning yozilgan kuni, murojaat shakli, imzo chekish, manzilgoxni yozish singari ishlar nazarda tutiladi. (Sinfda xat namunasi ko'rinadigan joyga quyish zaruriyati tutiladi.)

Yozish va yozma nutq bo'yicha amalda joriy mashqlardan namunalari keltirildi, xalos. har bir sinfda sharoitga harab, o'quvchilar ko'nikma va malakalarining rivojlanishi darajasini qisobga olib, yozuv mashqlarini bajarishning qususiy tartiboti belgilanadi.

Mashqlar yozuv texnikasini o'rgatish va fikrni yozma bayon qilish bo'yicha bo'ladi. Ular ikki tipga bo'linadi: 1. Til yoki tayyorlov va 2. nutq mashqlari.

Harflar, harf birikmalarining, so'zlar va so'z birikmalarining to'qri yozilishi, so'zlardan jumlar to'zish, matn ustida ishlaganda esa uni qisqartirish, reja to'zib yozishni o'rgatadigan mashqlar qo'llaniladi.

Fikrni yozma bayon qilishga o'rgatadigan mashqlar nutq mashqlari qisoblanadi. Bunday mashqlarga bayon, insho va chet ellik do'stga xat yozishni, annotatsiya to'zishni, bir mavzuni yozma bayon qilish kabilari kiradi.

Tayyorlov mashqlari eng avvalo namunalari asosida bajariladigan mashqlarni ko'chirib yozish, ularni kengaytirish yoki soddalashtirish kabilarni o'z ichiga oladi. Tayyorlov mashqlarining yana bir turi axborotni o'z so'zlari bilan ifoda qila olish ko'nikmasini rivojlantirish uchun matnni qisqartirish yoki uni kengaytirish singari mashqlardan foydalanishi mumkin.

Yozuvni rivojlantirishga mo'ljallangan nutq mashqlari mazmun jihatidan bir - biri bilan boqlangan gaplarni eslab aytish, yozish mashqlari bilan boshlanadi.

Yozuvni shakllantirishda mashqlar. yozma ishlar, diktant, bayon, tasvirlash, qikoya qilish, insho yozish, xat yozish kabi turlaridan foydalaniladi.

Yozuvni tekshirish va nazorat qilish

Ingliz tili o'qitish metodikasi yozuv malaka, ko'nikmalarini nazorat qilishga, tekshirishga etarlicha aqamiyat berishni talab qiladi. Uni nazorat qilishning asosiy ob'ekti yozuv malaka va ko'nikmalari deb haraladi. Bu narsa grafika va imlo malakalari nazorat qilinmaydi degan ma'noni bildirmaydi.

Yozuv va imlo malakalari qay darajada shakllanganligini tekshirishda tinglab diktant yozishdan foydalanish mumkin. Bunday diktantning vazifasi o'quvchilarning tovushli nutqni yozma nutqqa aylantirish malakasini tekshirishdan iboratdir. O'qituvchi yozilgan diktantni kelgusi darsgacha tekshirib chiqishi, o'quvchi, talabalar yo'l qo'ygan xatolarni tahlil qilishi lozim.

Fikrni yozma bayon qilish ko'nikmalarini tekshirish paytida tasvirlash, qikoya qilish, insholar va shuningdek, chet ellik teng qurlariga xat yozish, tekshiruv topshiriqi sifatida qo'llanilishi mumkin. Bunday topshiriqlar uyda yozib kelish uchun qam berilishi mumkin, Bunday topshiriqlar yozib chikilgach, o'qituvchi ularni tekshirib bo'lgandan keyin ulardagi tipik xatolarni sinfdagi tahlil qilish katta aqamiyatga egadir.

Umumai ingliz tilini va shu bilan birga yozuvni o'rgatishda o'quvchi, talabalar daftarlarini muntazam ravishda tekshirib turish juda foydalidir.

Ta'limning birinchi bosqichi (5 - 6 sinflarda) o'quvchilarning daftarlari har qaftada tekshirilishi, diktant va yozma ishlar yozdirilganda ularni tekshirish kelgusi darsgacha amalga oshirilishi zarur. Noto'qri yozish yoki leksik va grammatik xatolarga yo'l qo'yish odatga aylanib qolmasligi uchun daftarlar muntazam ravishda tekshirilib borilishi talab qilinadi.

1. Veru good.	Juda yaxshi.
2. Good	Yaxshi
3. Quite good (or satisfactory)	qoniharli.
4. Unsatisfactory (or roor)	qoniharsiz
5. Careless (wogk)	Etiborsiz ish
6. Messy (work)	Iflos (ish)
7. You have smuged some of your words /lines	Siz ba'zi so'zlarni (qatorlarni) surkatibsiz
8. Leave spaces between wogds (dont write so close together)	So'zlarni o'rtasida bush joy qoldiring
9. Don't join your words together	So'zlarni bir- biriga qo'shib yubormang
10. Don 't leave such big spaces between words	So'zlarning o'rtasida ko'p joy qoldirmang
11. Don't go over (uour) wogd s more than onse	So'zni ustidan kayta - kayta yozmang
12. Your lettegs age wrongly joined (together).	harflarni bir - biriga noto'qri boqlapsiz
13. Draw a margin	Xoshiya qoldiring
14. You must leave a wider margin	Kattaroq xoshiya qoldi - rishingiz kerak
15. Don't try to erase the word, it is better to cross in out	So'zni o'chirishga harakat qilmang yaxshisi ustidan
17. Don't write in the margin	Xoshiyaga yozmang
16. Don 't forget to wgite the date	Chislo yozish esingizdan chiqmasin
18. Don't leave out runstuation marks	Tinish belgilarini qo'yishni unutmang
19. For that blot in your copybook	Daftaringizdagi doq uchun

I shall reduce the mark

baxoyingizni pasaytiraman

20. Cross out the letter "n"

"n" harfini o'chiring

O'qituvchi daftarni tekshirib, albatta, ularga baxolar yoki reyting ballarini qo'yishi, ularni esa jurnalga qayd qilishi maqsadga muvofiqdir. Bu o'quvchilarni daftarga to'qri, xatosiz, chiroyli yozishga raqbatlantiradi. Aks qolda, o'quvchilarga daftar tuttirish, chiroyli va xatosiz yozdirish qiyin.

Yozuvda uchraydigan xatolarni to'zatis

Xozirgi zamon chet tillarini o'qitish metodikasi o'quvchi, talabalar yozma nutqidagi o'z xatosini tushunib olgan va muayyan ishni xatosiz bajara olgan paytdagina xatolar takrorlanishining oldini olish mumkin, deb qisoblaydi. Ba'zi chet el metodistlari o'quvchi, talabalar ongida xatolar o'rnatilib kolmasligi uchun ular xato qilmasligi va xatoni kurmasligi kerak degan nazariyaga asoslanib, o'quvchi, talabalar yo'l qo'ygan xatolarni to'qrilashni taklif qiladilar. Yozma ishlarni tekshirishda o'quvchilar o'z xatolarini aniq ko'rishlari va ularni ongli ravishda to'zatis uchun xatolarning tagiga chizib qo'yish, daftar xoshiyasiga ularning qanday xatolar ekanini ifodalovchi (gr, lex kabi) belgilar qo'yish tavsiya qilinadi. Xatolar ustida ishlash ularning harakteriga boqliqdir. Masalan, imlo va grafik xatoga yo'l quygan o'quvchidan xato yozilgan so'zni bir necha marta yozish talab qilinadi. Grammatik va leksik xatolar ustida ishlashda o'quvchi, talabalarga bu qodisani gapda to'qri ishlatish tushuntiriladi.

O'rta maktabda yozishni o'rgatish metodikasi yukorida aytilgan bo'yicha o'rgatiladi. O'qituvchilar yozuv texnikasini, fikrni yozma bayon qilishni o'rgatishning qususiyatlarini, qiyinchiliklarini albatta aniqlashi kerak.

Yukoridagi aytilgan qususiyat, qiyinchiliklarni oldindan aniqlangandan so'ng ularga harab o'rgatishning oson metod, usuli tanlanishi mumkin.

Yozuvni o'rgatishda mashqlar, yozma ishlar muxim o'rin to'tadi. O'qituvchi yozma mashqlarni, yozma ishlarni to'qri tashkil qilib o'tkaza olishi lozim. Aks qolda o'quvchilarning yozma mashqlarni, yozma ishlarni noto'qri bajarishida o'qituvchi aybdor bo'ladi. O'qituvchi yozma mashqlarni, yozma ishlarni tekshirish, nazorat qilishni qam esdan chiharmasligi kerak. Agarda xatolar to'zatilmasa, ustida ishlanmasa o'quvchi doimo xato yozadigan bo'ladi.

1.6. O'rta maktabning 5 - 6-sinflarida inglizcha yozishni o'rgatishning xususiyatlari va yozishni o'rgatish

G. V. Rogova va boshqalar boshlanqich bosqichda ya'ni 5 - b-sinflarda inglizcha yozuvni o'rgatish masalasi bilan shuqullanganlar. Ular yozuvni o'rgatish mazmunini 3ga bo'ladilar:

1. Lengvistik komponent.
2. Psixologik komponent.
